

Andijon viloyati Izboskan tumani

2-Maktab Ona tili Mamatojiyeva Muqaddamxon

EGALIK SHAKLLARIVA ULARNING IMLOSI

Darsning maqsadi:

- a) ta'liraiy maqsad - egalik shakllari va ularning imlosi yuzasidan ЁЎТ berish;
- b) tarbiyaviy maqsad - nutqiy go'zallikni tarbiyalash;
- d) rivojlantiruvchi maqsad - egalik shakllarird nutq vaziyatiga mos ravishda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Asosiy tushuncha va atamalan Egalik shakllari va ularning imlosi, *-im, -imiz, -ing, -ingiz, -i, -lari* qo'shimchalarining undosh bilan tugagan ismlarga qo'shilishi, *-m, -miz, -ng, -ngiz, -si, -lari* qo'shimchalarining unli bilan tugagan so'zlarga qo'shilishi. **Darsni tashkil etish texnologiyasi:** Metod: muammoli o'qitish va tahlil. **Shakl: jamoa bo'lib ishlash.**

Usui: induktiv (amaliyotdan nazariyaga qarab borish)

Vosita: darslik, ko'rsatmali va tarqatma materiallar, rag'bat kar-tochkalari, jadvallar.

Darsning borishi: Uyga berilgan vazifani og'zaki so'rash. Sinf o'quvchilari 2 guruhga ajratiladi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi. *

1 guruh: Quyidagishe'riypardiadarusmlarningmunosabatshakli (egalik)ni aytish. (She'r misralari kodoskop orqali ko'rsatiladi). *Ko 'zlarimga surib hokini, Tarixlarni bir-bir titurman, Afsonalar topib biturman.* 2-guruh:

Olmos bo 'lib yarqirar tog 'lor qoyasi,

Yo 'llaringga bosh urur bog 'lar soyasi.


She'r misralaridan munosabat (kelishik) shaklini aniqlash.

Javoblar umumlashtirilgach, uyga yozma shaklda berilgan, ya'ni "Bog'da"

sarlavhasi ostidatuzib kelingan hikoya o'qiriladi. Undagi munosabat shakllari izohlanadi.

Yangi mavzuning bayoni: Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi.

1-guruhga: Berilgan birikrnadagi nuqtalar o'rniga mos qo'shimchalar qo'yish.



2-guruhga: *Ona* va *o'qidi* so'zlarini egalik qo'shimchalari bilan shaxs va sonda o'zgartirish. Guruhlar tomonidan topshiriqlar bajarilib bo'lingandan keyin muammoli savol tashlanadi.

Muammoli savol. *Ona* va *o'qidi* so'zlariga — *m* (-im), *ng*(-ing), *-i* (si) kabi bir xil qo'shimchalar qo'shilyapti. Lekin biri ot (ona) so'z

turkumi, ikkinchisi fe'l (o'qidi) so'z turkumidir. Qo'shimchalarning nomini keltiring. Ularning farqi nimada?

Muammoli savolga berilgan javobga qarab sinf o'quvchilari yana 2 guruhga bo'linadilar. Ya'ni mavzuni yaxshi o'zlashtirganlar guruhi va mavzuni o'zlashtirishiqiyinbo'lgan o'quvchilarguruhvga ajratiladi. Guruhlarga topshiriqlar beriladi.

1-guruh: *Tashkent shahri, "Bolalar" jamg'armasi, Farg'ona viloyati* kabi

birikmalar qatorini davom ettirib yozish va bu birikmalarning tarkibidagi

egalik qo'shimchalarining vazifalarini tushuntirish.

2-guruh: Quyidagi birikmalarni ko'chirib yozish va 3-shaxs egalik

qo'shimchalarining vazifasi haqida fikr yuritish.

Alisher Navoiy bog 'i, Do 'stliktumani, Jizzax viloyati, Mustaqillik bayrami.

Topshiriqlar bajarib bo'lingandan so'ng xulosa sifatida o'quvchilar diqqati quyidagi ko'rsatmali vositada (yoki slayd orqali) berilgan ta'rifga qaratiladi.

Bilib oling. Ismlarga qo'shilib, asos qismda ifodalangan narsa. belffi-/at, harakat-holatlarni uch shaxsdan biriga qarashliligini bildirgan qo'shimchalar egalik qo'shimchalari hisoblanadi. *Masalan:*

Mening vazifam (unli bilan tugagan) Mening qardoshim (undosh bilan tugagan)

Eslab qoling. Viloyat. shahar, tuman, korxona. muassasa nomlarida qo'llanilgan 3-shaxs egalik qo'shimchasi shaxsga qarashlilik ma'nosini emas. balki xoslik. umumdan ajatilganlik ma'nosini ifodalaydi. y M:

Boburning bog 'i emas - Bobur bog 'i

Mustahkamlash: Darslik bilan ishlash. Darslikdagi 103-mashq yakka tartibda o'g'zaki, 104-mashq esayozmatarzdabajariladi.

Darsni xulosalash maqsadida quyidagi grammatik topishmoq aytiladi.

Topishmoq javobi qaysi guruh o'quvchilari tomondan aytilsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi. **Namuna:**

Predmetning, uch shaxsning

Egasini bildirar, -ning, -dan, -da, -ganl

Birlik, ko'plik uch shaxsda Nitna degani? Ot so

'zlarga qo'shilar -im, -ing, -i qo'shimchalar Qanaqa qo

'shimchalar?

Qaysi holatda ular

—:.... — — ^ — — — —

-m,-ng, -si tanda bolar?

Uyga vazifa: 106-mashq. Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniga zarur egalik qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chirish.